

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

MAHMUD QOSHG‘ARIY – BUYUK ETNOFOLKLORIST

Yarmatov Turg‘unjon Joylovovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

tarix ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

turgun_yarmatov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada buyuk qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning tarix, etnografiya va folklorshunoslik sohalarida olib borgan ilmiy merosi va ularning jahon ilm fani taraqqiyotidagi ahamiyati xususida qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘otit turk”, “Hudud al-alam”, “Devon”, “Baroq”, “Qazunuk”, “Temur qazunuq”, “Temur qoziq”, “Ko‘k tubulg‘on”, “Kok tubulg‘on”, “Xudxur”, “Qaz”, “Chigil”, “Turkman”

АННОТАЦИЯ

Данная статья предоставляет ценную информацию о научном наследии великого энциклопедиста Махмуда Кашгари в областях истории, этнографии и фольклора, а также об их значении для развития мировой науки.

Ключевые слова: «Девону луготит турк», «Худуд ал-алам», «Девон», «Барок», «Газунук», «Темур газунук», «Темур казик», «Кок тубулгон», «Кок тубулгон», «Худхур», «Газ», «Чигил», «Туркман».

ABSTRACT

This article provides valuable information about the scientific heritage of the great encyclopedist Mahmud Kashgari in the fields of history, ethnography and folklore and their significance in the development of world science.

Keywords: “Devonu lug‘otit turk”, “Hudud al-alam”, “Devon”, “Baroq”, “Qazunuk”, “Temur qazunuq”, “Temur qaziq”, “Kok tubulg‘on”, “Kok tubulg‘on”, “Khudhur”, “Qaz”, “Chigil”, “Turkman”.

Mahmud Qoshg‘ariy XI asrning buyuk qomusiy olimi, turkshunos, etnofolklorshunoslik yo‘nalishining nazariy asoschilaridan biri hisoblanib, biz buni

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

olimning mashhur “Devonu- lug‘otit turk” asari misolida ko‘ramiz.

Mashhur olimlar V.I. Belyaev, V.V. Bartold, N.A. Baskakov, S.M. Malov, A.M. Sherbak, S. Mutallibov, N.M. Mallayevlar “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy qimmatiga yuksak baho berganlar. Mustaqillik yillarida mazkur asar yuzasidan A. Aliyev, Q. Sodiqov, B. Valixo‘jayev, U. Jo‘raqulov, M. Xayrullayev, M. Jo‘raev, Q. Karimov, N. Rahmonov, Turon Usmon, U. Tursunov, B. O‘rinboev, G‘. Abdurahmonov, G‘. Boboyorov, J. Xudoyberdiev va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Xorijlik olimlardan K. Brokelmann, Devryuks Robert, Besim Atalay, A.M. Auezova, Taalaybek Tokoev, Kubatbek Koshtokob va boshqalar o‘z izlanishlarida “Devon” haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tishgan.

Mahmud ibn-ul-Husayn ibn Muhammadil Qoshg‘ariy XI asr boshlarida Bolasog‘unda (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq shahri yaqinida) tug‘ildi. Uning bobosi Qoshg‘arlik bo‘lib, Bolasog‘unga ko‘chib kelib, turg‘un bo‘lib yashab qolgan. Uning bobosi Muhammad va otasi Husayn Issiqko‘l bo‘yidagi Barsag‘on shahridan bo‘lganlar. Otasi, xizmati yuzasidan bo‘lsa kerak, Barsag‘ondan Qoshg‘arga ko‘chgan va shu yerda o‘rnashib qolgan. Shuning uchun Mahmudning ismi Qoshg‘ariy bo‘lib ketgan Mahmud Qoshg‘ariy qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lib, otasi Husayn ibn Muhammad o‘sha davrdagi Barsag‘on shahrining amiri bo‘lgan. Qoshg‘ariy boshlang‘ich ma‘lumotni o‘z qishlog‘ida, yuqori ma‘lumotni Qoshg‘ar madrasalarida olgan, arab, fors, turkiy kabi 7–8 tilni puxta egallagan.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalarini to‘planishi va yozib olinishi tarixi haqida so‘z yuritganda 10 asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja‘far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo‘shiq, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, “**Devonu lug‘otit turk**” asariga kiritganligini eslash kerak bo‘ladi. Shuningdek, maqol va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini o‘rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini “**Qisasi Rabg‘uziy**” jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy, o‘zbek xalq she‘riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug‘ o‘zbek shoiri to‘g‘risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan. Darvesh Ali Changiy, o‘zbek xalqining urf-odatlarini, marosimlarini, maqol va hikmatli so‘zlari, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабрь

o‘zi tuzgan lug‘atda xalq qo‘shiqalaridan misollar keltirilgan Shayx Sulaymon Buxoriy o‘zbek folklori asarlarining ilk to‘plovchilari edilar.

Mahmud ibnu-l-Husayn ibn Muhammad Qoshg‘ariy 1029-1038 yillar oralig‘ida tug‘ilgan. U 1072 yilda o‘zining **“Devonu lug‘otit turk”** asarini yozishga kirishgan va uni 1078 yilda nihoyasiga yetkazgan. Bu asarni yozishdan avval u uzoq yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to‘plagan. Bu haqida uning o‘zi shunday yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli til so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmagim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida ust nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”.

Juda katta ko‘lamda ilmiy-ommaviy ma‘lumotlar bo‘yicha to‘plovchilik faoliyatini olib borgan Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining ana shu safarlari chog‘ida faqat lug‘at uchun lisoniy materiallar to‘plash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalarini ham yozib olgan. Bu olimning “men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalishi xususiyatlarini va qanday qo‘llanishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qo‘llanib kelingan she‘rlardan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilardan esa o‘z navbatida shu tilda so‘zlovchilariga yetkazsin”.

Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qabilalar folklorining qo‘shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to‘plangan. Shuning uchun ham **“Devonu lug‘otit turk”** asaridagi folklor materiallarini o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy o‘rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, **“Devonu lug‘otit turk”** leksikasining o‘zbek folkloridagi ko‘rinishlariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan H. Zarif 1961 yil 21 fevralda quyidagilarni yozgan edi: **“Devon”** dagi leksik va grammatik faktlarni o‘zbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, u faktlarning o‘zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir”.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

Bu manbada ajdodlarimizning osmon yoritqichlari bilan bogʻliq mifologik hamda kosmogonik tasavvurlariga oid qiziqarli maʼlumotlar uchraydi. Olim **“Devon”** ning 1-jildida **“oy”** soʻziga izoh berar ekan, **“oʻn toʻrt kunlik oyga “tolun aj” (toʻlin oy) deyiladi”** deb yozadi va **“a:j tolun bolsa elirin imlamac”** yaʼni **“oy toʻlin boʻlsa, qoʻl bilan imlamas”** maqolini keltiradi (**“Devoni”, 1, 110-111-betlar**).

Toʻlin oy koʻringan tarafga qarab qoʻl bilan imlamaslik tabusi XI asrda istiqomat qilgan turkiy qavmlar orasida keng yoyilganligi bejiz emas. Chunki, qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz oy, quyosh va yulduzlarni muqaddaslashtirib, topinganlar. Quyosh va oyning kecha-kunduz oʻrin almashib turishi, osmon toʻla charagʻon yulduzlarning jilolanib koʻrinishi qadimgi odamning eʼtiborini jalb etgan. **“Hudud al-alam”** nomli asarda yozilishicha, qadimgi turkiy qavmlar, xususan, chigillar quyosh va yulduzlarga sigʻinishsa, tatarlar bu olamda oftobdan muqaddasroq narsa yoʻq deb bilishgan. Bu asarda qirgʻizlarning bobokalonlari Zuhra va Mushtariy yulduzlarini moʻtabar sanashganligi haqida ham maʼlumotlar bor.

N.Ya. Bichurinning guvohlik berishicha, qadimgi turkiylar erta tongda uyidan chiqqach, avvalo ufqdan bosh koʻtarayotgan quyoshga, kechqurun esa oyga taʼzim bajo keltirishni farz deb bilishgan. Oʻtovlarning eshigini kunchiqarga qaratib qurishga odatlangan uxuanlanlar esa yer, osmon, quyosh, oy yulduzlarga, shuningdek, otabobolarining arvohlari haqiga qurbonliklar qilishgan.

Mahmud Qoshgʻariy oʻz asari uchun material toʻplaganida turkiy qabilalarning mifologik tasavvurlarini ham sinchiklab oʻrgangan. Zero, **“Devon”** da qush tuxumidan chiqqan it – **“baroq”** toʻgʻrisidagi afsona hamda Yetagan, Oltin qoziq (Temir qozoq) yulduzlari haqidagi samoviy qarashlar keltirilganligi ham shu fikrni tasdiqlaydi. **“Qazunuk”** – qoziq. Qutb yulduzini **“Temur qazunuq”** deyish ham shundandir. **“Temur qoziq”** demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi” (**“Devon”, 3-jild, 393-bet**), - deb yozadi Mahmud Qoshgʻariy. Olim **“koʻk tubulgʻon”** soʻziga izoh berib, quyidagilarni yozadi: **“kok tubulgʻon – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida poʻlat boʻladi va qanoati bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga oʻtadi”**. Bu soʻz menga oʻzim foydalanib yurgan bir kishi aytdi” (**“Devon”, 1-jild, 474-bet**).

Maʼlumki, bu mifologik afsonada qadimgi turkiylar folklorida mavjud boʻlgan hayotiy qush toʻgʻrisidagi xalq qarashlari oʻz ifodasini topgan. Oʻzbek tilida qattiq patlari oʻsib chiqqan qush poloponini **“temirqanot boʻlibdi”** deb taʼriflashda ham ana shu koʻhna tasavvurlarning izi saqlanib qolganga oʻxshaydi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

Shu o'rinda Mahmud Qoshg'ariyning folklor to'plovchi sifatidagi muhim bir xususiyati ham ko'zga tashlanib turibdi: olim **"ko'k tubulg'on"** haqidagi mifologik afsonani keltirar ekan, bu hikoyani u o'ziga hamrohlik qilgan bir kishidan eshitganligini alohida qayd qiladi. Folklor asarini so'zlab bergan aytuvchi, ya'ni ijrochi haqida ma'lumot berish esa xalq og'zaki badiiy ijodi namunasini yozib olishning ilmiy mezonlaridan biridir.

Mahmud Qoshg'ariyning **"Devonu lug'otit turk"** asarida u yoki bu so'zlar ma'nosini izohlash, sharhlash maqsadida keltirilgan og'zaki nasriy asarlari mifologik afsonalar, etnogenetik afsona va rivoyatlar, toponimik afsona va rivoyatlar, xalq taqvimi bilan bog'liq rivoyatlar, naqlarga bo'lib tavsiflash mumkin. **"Devon"** da **"Xudxur" (1-jild, 135-bet)**, **"qaz" (3-jild, 163-bet)** kabi toponimik rivoyatlar, **"Chigil" (1-jild, 374-bet)**, **"Turkman" (3-jild, 419-422-betlar)** singari etnogenetik rivoyatlar, muchal hisobining kelib chiqishi haqidagi taqvimiy rivoyat **(1-jild, 330-331-betlar)** ham keltirilgan.

Xulosa, Mahmud Qoshg'ariy XI asrning turkiy xalqlar maqollari, hikmatli so'zlar, qo'shiqlar, mif, afsona, rivoyat va naqlar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e'tiqodiy inonchlar hamda mifologik e'tiqodlarga doir eng muhim tarixiy-etnografik materiallarni to'plagan va ularni ilmiy tahlil qilgan buyuk tarixchi va etnofolklor olimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Беляев В.И. Диван лугат ат-турк. Матералы по истории туркмен и Туркменистана. Т. I. – М.-Л., 1939 – С. 32;
2. Abdurahmonov G'. "Devonu lug'otit turk" asarining o'rganilish tarixidan // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2009. № 6. – B. 49.
3. Токоев Т., Коштокоб К. Диван лугат ат-Турк. Т. II. – Бишкек: Avrasyapress Basmasi, 2012. – с. 592.
4. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – Б. 103.
5. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б. 515.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Т. V. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – В. 8, 174.
7. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. 1-том. – Т.: Фан, 1960. - Б. 44.
8. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. 1-том. – Т.: Фан, 1960. - Б. 47.
9. Зарифов Ҳ. "Девону луғотит турк" лексикасининг ўзбек фолклорига кўринишига доир (тезислар)//Пўлкан шоир. – Т., Фан, 1976. – Б. 96.
10. "Худуд ал-алам". Рукопис Туманского, изд с введением и указателями Б.Б.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 11, Декабря

Бартолда. – Л., 1930. – С. 43, 170.

11. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Т., 1. – М.-Л., 1957. – С. 50- Б. 142-144.